

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/30.12.2019.F.01.14 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

**HAYRIDINOV ABBOSXON ANVAROVICH**

**O‘ZBEKISTON YOSHLARIDA “OMMAVIY MADANIYAT”  
XURUJIGA QARSHI IMMUNITET SHAKLLANISHIDA MILLIY  
QADRIYATLARNING O‘RNI**

**09.00.06 – G‘oyalar tarixi va metodologiyasi**

**FALSAFA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI  
AVTOREFERATI**

**Toshkent–2025**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**  
**Оглавление автореферата диссертацияси доктора философии (PhD)**  
**Contents of the dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)**

**Hayridinov Abbosxon Anvarovich**

О‘zbekiston yoshlarida “ommaviy madaniyat xurujiga qarshi immunitet shakllanishida milliy qadriyatlarning o‘rni.....3

**Хайридинов Аббосхон Анварович**

Роль национальных ценностей в формировании иммунитета против атаки «массовой культуры» у молодежи Узбекистана.....22

**Hayridinov Abbosxon Anvarovich**

The Role of National Values in Forming Immunity against the Attack of “Mass Culture” among the Youth of Uzbekistan.....42

**E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati**

Список опубликованных работ

List of published works .....47

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/30.12.2019.F.01.14 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

**HAYRIDINOV ABBOSXON ANVAROVICH**

**O‘ZBEKISTON YOSHLARIDA “OMMAVIY MADANIYAT”  
XURUJIGA QARSHI IMMUNITET SHAKLLANISHIDA MILLIY  
QADRIYATLARNING O‘RNI**

**09.00.06 – G‘oyalar tarixi va metodologiyasi**

**FALSAFA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI  
AVTOREFERATI**

**Toshkent–2025**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.2.PhD/Fal763 raqam bilan ro‘yxatga olingan.**

Dissertatsiya O‘zbekiston Milliy universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning [www.sf-ik.uz](http://www.sf-ik.uz) hamda «ZiyoNet» Axborot ta’lim portalining [www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz) veb sahifasiga joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**To‘ychiev Berdiqu To‘raqulovich**  
falsafa fanlar doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Xudayberganov Ravshan Xudoybergan o‘g‘li**  
falsafa fanlari doktori, dotsent  
**Mamatkulov Davlatjon Maxamatjonovich**  
falsafa fanlari doktori, dotsent

**Yetakchi tashkilot:**

**Toshkent davlat texnika universiteti**

Dissertatsiya himoyasi O‘zbekiston Milliy universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.F.01.14 raqamli Ilmiy kengashning «\_\_\_» \_\_\_\_\_ 2025-yil soat \_\_\_ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 100174, Toshkent shahri, Universitet ko‘chasi, 4-uy. O‘zbekiston Milliy universiteti Ijtimoiy fanlar fakulteti binosi Tel.: (99871) 227-12-24; faks: (99871) 246-02-24; e-mail: [nauka@nuu.uz](mailto:nauka@nuu.uz)).

Dissertatsiya bilan O‘zbekiston Milliy universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (\_\_\_ raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100174, Toshkent shahri, Universitet ko‘chasi, 4-uy. O‘zMU Ma‘muriy binosi, 2-qavat, 4-xona. Tel.: (99871) 246-67-71; faks: (99871) 246-02-24.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil «\_\_\_» \_\_\_\_\_ kuni tarqatildi.

(2025-yil «\_\_\_» \_\_\_\_\_ dagi \_\_\_ raqamli reyestr bayonnomasi).

**N.A.Shermuxamedova**  
Ilmiy darajalar beruvchi  
Ilmiy kengash raisi, falsafa  
fanlari doktori, professor

**M.T.Xidirov**  
Ilmiy darajalar beruvchi  
Ilmiy kengash kotibi, falsafa  
fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD),  
dotsent

**J.Y.Mavlonov**  
Ilmiy darajalar beruvchi  
ilmiy kengash qoshidagi  
ilmiy seminar raisi, siyosiy  
fanlar doktori, dotsent

## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiya annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahonda ommaviy madaniyat xalqlarning milliy o'zligini anglash, ajdodlar merosini asrash, milliy an'analarni zamon ruhida qayta tiklash omili sifatida rivojlanmoqda. Ommaviy madaniyat jamiyatni harakatlantiruvchi kuch sifatida ijtimoiy hayotning barcha sohalarida namoyon bo'lmoqda. Biroq, ba'zi hollarda, ommaviy madaniyat aksilmadaniyat sifatida yoshlar ongiga salbiy ta'sir etmoqda va ular ongida siyosiy boshqaruv tizimiga nisbatan salbiy munosabatni shakllantirmoqda. Shu bois, zamonaviy yoshlar ongida mafkuraviy immunitetni shakllantirish, ommaviy madaniyatning har qanday ko'rinishlariga qarshi immunitetni shakllantirishning metodologik yondashuvlarini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Dunyoning bir qator ilmiy tadqiqot institutlari va markazlarida ommaviy madaniyat xurujlariga qarshi kurashning yo'nalishlari, turli qadriyatlar transformatsiyasining ijobiy va salbiy jihatlari, yoshlar ongida mafkuraviy immunitetni shakllantirishda tarixiy xotiraning o'rni, ijtimoiy tarmoqlarda tarqalayotgan axborot oqimini saralash, tanlash mahoratini shakllantirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Bu ilmiy tadqiqotlarda yoshlar ongida vatan tuyg'usini shakllantirish, milliy qadriyatlarni asrash va kelajak avlodga yetkazish, kiber xurujlarga qarshi kurashda bilim va e'tiqod mutanosibligini ta'minlashning ahamiyatini asoslashga e'tibor qaratilmoqda. Ayni paytda, ommaviy madaniyat xurujlariga qarshi milliy qadriyatlarning rolini asoslash bo'yicha ilmiy ishlarni takomillashtirishga ehtiyoj oshmoqda.

O'zbekistonda ommaviy madaniyat xurujlariga qarshi kurash vositasi sifatida yoshlarni ish bilan ta'minlash, ularni turli sohalarda erishgan yutuqlari salmog'iga ko'ra rag'batlantirish, yosh oilalarga imtiyozli uylar ajratish, yosh muhandis, yosh tadbirkor, yosh olimlarning tashabbuslarini qo'llab-quvvatlashga davlat siyosati darajasida e'tibor qaratilmoqda. Zero, "Yosh avlod tarbiyasi hamma zamonlarda ham muhim va dolzarb ahamiyatga ega bo'lib kelgan. Ammo biz yashayotgan XXI asrda bu masala haqiqatan ham hayot-mamot masalasiga aylanib bormoqda"<sup>1</sup>. Shu bois, tarixiy haqiqatlarni tiklash va ulardan saboq olish, yangi avlod yoshlarida millat ravnaqiga munosib hissa qo'shish tuyg'usini shakllantirishning takomillashtirilgan metodologik yondashuvlarini ishlab chiqish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida", 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022–2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmonlari, 2021-yil 1-iyuldagi O'zbekiston Respublikasining ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashish bo'yicha 2021-2026 yillarga mo'ljallangan strategiyasi, O'zbekiston Respublikasining 2022 yil 15-apreldagi "Kiberxavfsizlik to'g'risida"gi, O'zbekiston

---

<sup>1</sup> Mirziyoyev Sh.M. Jismoniy va barkamol yoshlar – bugungi va ertangi kunimizning hal qiluvchi kuchidir // Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. J 1.- T.: O'zbekiston, 2017.- B.504-505.

Respublikasining 2016-yil 14-sentyabrdagi “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida” va 2017 yil 8-sentyabrdagi “Bolalarni ularning sog‘lig‘iga zarar yetkazuvchi axborotdan himoya qilish to‘g‘risida”gi qonunlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining respublika ilm-fan va texnologiyalarini rivojlantirishning “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Jamiyat taraqqiyotining barcha davrlarida yoshlarni ma‘naviy barkamol shaxs sifatida tarbiyalashga alohida e‘tibor qaratilgan. “Avesto” muqaddas kitobida yoshlar tarbiyasida mehnatning roli, Sokratning o‘z ma‘ruzalarida yoshlarning jamiyatni harakatlantiruvchi kuch sifatidagi ahamiyati, Aristotelning “Nikomaxovo etika” asarida axloqiy tarbiyaning roli, Platonning “Respublika” asarida yoshlar ongida vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirishda harbiy mashqlarning o‘rni, Qadimgi Hindistonda “Mahobxorot” va Qadimgi Xitoyning “O‘zgarishlar” kitobida yoshlar tarbiyasiga oilaviy va tashqi ijtimoiy muhitning ta‘siri asoslangan<sup>2</sup>.

Sharq mutafakkirlari Beruniy katta avlod ibratining yoshlar tarbiyasidagi roli, Forobiy yoshlar ijtimoiy faolligini oshirish, Yusuf Xos Xojib va Koshifiy axloqiy tarbiyaning yoshlar ongida ijobiy fazilatlarni shakllantirishdagi ahamiyati, G‘arb mutafakkirlari F.Bekon yoshlarning ongida bilim va e‘tiqod uyg‘unligiga erishishning ahamiyati, R.Dekart metodologik yondashuvlardan to‘g‘ri foydalanishning o‘rnini ochib berganlar<sup>3</sup>.

XX asrda E.Giddens, Bernard Holkner, Geoff Romeo, Brown, Milligan, Tau Vaugxanlarning<sup>4</sup> tadqiqot ishlarida ommaviy madaniyatning tarqalishida axborot texnologiyalari, jumladan mediata‘lim texnologiyalarining rolini ochib berganlar. Rossiya Federatsiyasi olimlari Moskva davlat universiteti mutaxassislari, AQSH

---

<sup>2</sup> Aristotel. “Nikomaxova etika” asarida axloqiy tarbiya va inson fazilatlari tahlili. Toshkent: Fan, 2004.; Avesto. Yoshlar tarbiyasida mehnat va axloqiy qadriyatlarning qadimiy talqini. Sharq nashriyoti, 2001. ; Platon. Yoshlar ongida vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirish. In: Respublika. Toshkent: Milliy ensiklopediya, 2002.; Sokrat. Yoshlarning jamiyatdagi o‘rni. In: Suhbatlar. Antik falsafa merosi. Afina: Afina falsafa maktabi, miloddan avvalgi V asr.; I Ching – O‘zgarishlar kitobi. Qadimgi Xitoy falsafasida tarbiya va ta‘sir omillari. Pekin: Foreign Languages Press, 1990.

<sup>3</sup> Beruniy A.R. Katta avlod ibratining yoshlar tarbiyasidagi o‘rni. In: Sharq mutafakkirlari merosi. Toshkent: Fan, 1968.; Forobiy A.N. Yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish masalasi. In: Fozil odamlar shahri. Toshkent: Sharq, 1993.; Yusuf Xos Xojib. Axloqiy fazilatlarning shakllanishi. In: Qutadg‘u bilig. Toshkent: Yozuvchi, 1990.; Koshifiy H. Axloqiy tarbiyaning yoshlar ongiga ta‘siri. In: Ahlok-i Muhammadī. Toshkent: O‘zbekiston musulmonlari idorasi, 1995.; Bekon F. Bilim va e‘tiqod uyg‘unligi masalasi. In: Novi Organum. Moskva: Nauka, 1972.; Dekart R. Metodik shubha va yoshlar tafakkurini shakllantirish. In: Fikrlash usuli haqida mulohazalar. Toshkent: O‘zbekiston Milliy universiteti nashriyoti, 2001.

<sup>4</sup> Giddens A. Modernity and Self-Identity. – Cambridge: Polity Press, 1991. Bernard Holkner, Geoff Romeo, Brown, Milligan, Vaughan. Information and Communication Technologies in Education. – Routledge, 2006. UK National Cyber Security Centre Reports. – [www.ncsc.gov.uk](http://www.ncsc.gov.uk) . US Department of Homeland Security, Cybersecurity & Infrastructure Security Agency. – [www.cisa.gov](http://www.cisa.gov)

AQSH ichki xavfsizlik vazirligining kiberxavfsizlik va kommunikatsiya boshqarmasi a'zolari, Buyuk Britaniyadagi Birlashgan Qirollikning Milliy kiberxavfsizlik markazida ommaviy madaniyatning yoshlar ongiga ta'sirining monitoringi olib borilmoqda.

MDH olimlari G.A.Atamanov, O.M.Manjuyeva, M.Y.Zaxarov, E.E.Perchuk, O.I.Nemkina, Y.A.Kaptyug, O.M.Sidenova, A.V.Polikarpov, V.F.Nitsevich<sup>5</sup> ijtimoiy tarmoqlardagi buzg'unchi g'oyalarning odamlar sog'ligi va ruhiyatiga ta'sirini tahlil qilganlar va uning profilaktikasi bo'yicha takliflar ishlab chiqqanlar.

O'zbekistonda B.T.Tuychiyev, I.Ergashev, N.Hakimov, J.Yaxshilikov, D.Norqulov, F.Musayev, J.Mavlonov, U.Butayev, B.Omonov, demokratik davlatda yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirishning ahamiyati, ommaviy madaniyatning turli ta'sirlardan saqlash mexanizmlari, S.Agzamxodjayeva, G.Tulenova, B.Ochilova, L.Qurbonova, N.Musayeva, N.Shermuxeimedova yoshlar tarbiyasida ideal obrazlarning o'rni, milliy ma'naviy qadriyatlarning transformatsiyasining yoshlar ongida milliy g'urur tuyg'usini shakllantirish omili sifatida ahamiyatini asoslaganlar. A.Mirzayev, N.Mamadov, A.Shohakimov yoshlar ongida harbiy vatanparvarlikni yuksaltirish omillari, D.Mamatqulov, Sh.Xonimov, S.Karimova<sup>6</sup> o'zbek xalqi taraqqiyotida mafkuraviy jarayonlarning transformatsiyasi va millatlararo munosabatlarning mafkuraviy ahamiyatiga oid ilmiy tadqiqot ishlarini himoya qilganlar.

Turli davrlarda nashr etilgan adabiyotlarning tahlilida milliy mafkuraning jamiyat taraqqiyotidagi roli va yo'naltiruvchi kuch sifatidagi ahamiyati ochib berilganligi aniqlangani bois, ushbu dissertatsiyada O'zbekiston yoshlarida "ommaviy madaniyat" xurujiga qarshi immunitet shakllanishida milliy qadriyatlarning o'rnini asoslashga harakat qilingan.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** O'zbekiston yoshlarida bilim va e'tiqod uyg'unligiga erishish orqali ommaviy madaniyat xurujlariga qarshi mafkuraviy immunitetni shakllantirish, milliy qadriyatlarga sadoqat ruhini yuksaltirishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

axborotlashgan jamiyatda yoshlarning milliy qadriyatlar transformatsiyasini

---

<sup>5</sup> Atamanov G.A., Manjuyeva O.M., Zaxarov M.Y., Perchuk E.E., Nemkina O.I., Kaptyug Y.A., Sidenova O.M., Polikarpov A.V., Nitsevich V.F. – Sotsial'no-psixologicheskie problemy informatsionnoy bezopasnosti. – Moskva: MGU, 2015.

<sup>6</sup> Tuychiyev B.T., Ergashev I., Hakimov N., Yaxshilikov J., Norqulov D., Musayev F., Mavlonov J., Butayev U., Omonov B. – Yoshlarning ma'naviy tarbiyasi va ijtimoiy faolligi masalalari. – T.: Ma'naviyat, 2020. Agzamxodjayeva S., Tulenova G., Ochilova B., Qurbonova L., Musayeva N., Shermuxeimedova N. – Milliy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi. – T.: Fan va texnologiya, 2021. Mirzayev A., Mamadov N., Shohakimov A. – Vatanparvarlik va yoshlar tarbiyasi: Nazariya va amaliyot. – T.: IIV akademiyasi nashriyoti, 2022. Mamatqulov D., Xonimov Sh., Karimova S. – Milliy mafkura va yoshlar ongidagi transformatsiya. – T.: O'zbekiston Milliy universiteti nashriyoti, 2021.

to'g'ri qabul qilishi va ularni saqlash, asrash jarayonida shaxsiy ibrat bo'lishining mafkuraviy ahamiyatini asoslash;

ommaviy madaniyatning shakllanishi tarixi, zamonaviy ko'rinishlarini tahlil etish va ularning mafkuraviy immunitetga salbiy ta'sirini ochib berish;

ijtimoiy tarmoqlarning yoshlar ongida qadriyatlarga sadoqat ruhini shakllantirishga oid ma'lumotlarni saralash va tanlashda bilim kuchining, bilim va e'tiqod mutanosibligiga erishishning mafkuraviy immunitet sifatidagi rolini isbotlash;

yoshlar ongida vatanparvarlik va milliy qadriyatlarga sadoqat tuyg'usini yuksaltirishda xalq madaniyatining mohiyatini va uning ommaviy madaniyatdan farqini ochib berishdan iborat.

**Tadqiqotning obykti** sifatida Yangi O'zbekistondagi ijtimoiy, siyosiy mafkuraviy jarayonlar tanlab olingan.

**Tadqiqotning predmetini** O'zbekistonda ommaviy madaniyatning yoshlar tomonidan qabul qilinishi va unga qarshi mafkuraviy immunitetni shakllantirishga oid jarayonlar tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Dissertatsiyada obyektivlik, tarixiylik, qiyosiy tahlil, umumlashtirish kabi usullardan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

ommaviy madaniyat va xalq madaniyatining ham g'oyaviy mazmunini obrazlar, ramzlar va timsollarda aks etadigan o'zaro aloqasi va farqli jihatlari tahlil etilgan va maqsad-resurs-natija tamoyili asosida ularning yoshlar ongiga ta'sirining ijobiy va salbiy jihatlari aniqlanib mafkuraviy immunitetni shakllantirishdagi roli ochib berilgan;

jamiyat barqaror taraqqiyotini, aholi osoyishtaligini va farovonligini ta'minlashdagi ijobiy o'zgarishlarga "X"-keksa avlod, "Y"-o'rta avlod hamda "Z"-hozirgi avlod o'rtasidagi qadriyatlar tizimini o'zaro moslashtirishning mafkuraviy muvozanatni ta'minlash, ijtimoiy ishonch va birdamlik bilan bog'liq sotsiokreativ jihatlari yoshlar tarbiyasi samaradorligini oshirishga xizmat qilishining mafkuraviy ahamiyati asoslangan;

O'zbekistonda milliy qadriyatlar tizimini siyosiy tizim elementlari bilan o'zaro dialektikasini umuminsoniy qadriyatlar bog'lashning normativ uyg'unlik, ijtimoiy moslashuvchanlik, mafkuraviy izchillik, ma'naviy immunitetni kuchaytirish kabi sifat xususiyatlari va ularning jamiyat barqarorligini ta'minlashdagi avlodlararo qadriyatlar muloqotidagi roli ochib berilgan;

yoshlar ongida hayotiy qadriyatlarni shakllantirish bilan birga milliy urf-odatlarining etnomadaniy, tarixiy shakllarini namoyon bo'lishining dinamikasi ular faoliyatini yuqori, o'rta va quyi darajalardagi baholash bilan aniqlangan va ijtimoiy faol yoshlar ongida ommaviy madaniyat xurujlariga bilim bilan qarshi kurashishni tushunishning mafkuraviy ahamiyatiga asoslangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:**

O'zbekiston yoshlari ongida ommaviy madaniyat xurujlariga qarshi mafkuraviy immunitetni shakllantirishda ta'lim va tarbiya tizimining o'zaro

mutanosibiligini ta'minlash, avlodlararo vorisiylikga erishishning mafkuraviy jihatlari asoslangan;

yoshlar ongida mafkuraviy immunitetni shakllantirish mexanizmi sifatida davlat va nodavlat tashkilotlarida tashkil etiladigan ma'naviy ma'rifiy targ'ibot ishlarini takomillashtirish mexanizmlarini takomillashtirishning

ommaviy madaniyatning ijtimoiy taraqqiyotdagi roli ijobiy maqsadlarga xizmat qilishining ahamiyati va bunda milliy qadriyatlar transformatsiyasiga ijobiy baho berishning rolini oshirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Tadqiqot natijalarining ishonchliligi ularning respublika va xalqaro miqyosdagi ilmiy konferensiyalar to'plamlarida, OAK ro'yxatiga kiritilgan maxsus jurnallar va xorijiy ilmiy jurnallarda nashr etilgan maqolalar, xulosa, taklif va tavsiyalarning joriy etilganligi haqida ma'lumotnomalarning tegishli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangani bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati, unda ilgari surilgan g'oyalardan ommaviy madaniyatning ijobiy va salbiy jihatlarning tahlili, milliy madaniy qadriyatlar transformatsiyasining yoshlarda o'tmish va zamonaviylik dialektikasini tushunishdagi ahamiyatini o'rganishga bag'ishlangan ilmiy tadqiqot ishlarida foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati, unda ilgari surilgan xulosalardan oliy ta'lim tizimida "Falsafa" fanini, o'rganish, shuningdek o'z o'zini boshqarish organlari, O'zbekiston Respublikasi ma'naviyat va ma'rifat markazining viloyat va tuman bo'limlarining fuqarolar bilan tashkil etiladigan davra suhbatlari, turli mushoiralarda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** O'zbekiston yoshlarida "ommaviy madaniyat" xurujiga qarshi immunitet shakllanishida milliy qadriyatlarning o'rni mavzusida olib borilgan tadqiqot natijalari, xususan:

ommaviy madaniyat va xalq madaniyatining o'zaro aloqasi va farqli jihatlari tahlil etilgan va maqsad-resurs-natija tamoyili asosida ularning yoshlar ongiga ta'sirining ijobiy va salbiy jihatlari aniqlanib mafkuraviy immunitetni shakllantirishdagi roliga oid takliflardan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi ish rejasining 3-yo'nalishiga O'zbekiston-2030 strategiyasining 12-band "O'zbekiston Respublikasida aholini ijtimoiy himoya qilishning huquqiy asoslari va adolatli ijtimoiy siyosat yuritish borasidagi islohotlar" yo'nalishida foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Mehnat va ijtimoiy masalalar qo'mitasining 2024-yil 3-avgustdagi 04/3-12-29-sonli ma'lumotnomasi). Natijalar O'zbekiston-2030 strategiyasining 12-band "O'zbekiston Respublikasida aholini ijtimoiy himoya qilishning huquqiy asoslari va adolatli ijtimoiy siyosat yuritish borasidagi islohotlar" mavzusidagi seminarni tashkil etishga xizmat qilgan;

jamiyat barqaror taraqqiyotini, aholi osoyishtaligini va farovonligini ta'minlashdagi ijobiy o'zgarishlarga "X"-keksa avlod, "Y"-o'rta avlod hamda "Z"-hozirgi avlod o'rtasidagi qadriyatlar tizimini o'zaro moslashtirishning sotsiokreativ

jihatlari yoshlar tarbiyasi samaradorligining mutanosibligi mahsuli ekanligining mafkuraviy ahamiyatiga oid takliflardan O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Fan, ta’lim, madaniyat va sport masalalari qo‘mitasining 2024-yil ish rejasining 10-bandi ijrosini ta’minlashda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Fan, ta’lim, madaniyat va sport masalalari qo‘mitasining 2024-yil 12-avgustdagi 04/9-10-29-sonli ma’lumotnomasi). Natijalar “Ta’lim sifatini oshirish – Yangi O‘zbekiston taraqqiyotining yakkayu yagona to‘g‘ri yo‘lidir” mavzusidagi davra suhbatini tashkil qilishga xizmat qilgan;

O‘zbekistonda milliy qadriyatlar tizimining siyosiy tizim elementlari bilan o‘zaro dialektikasini umuminsoniy qadriyatlar bog‘lashning sifat xususiyatlari va ularning jamiyat barqarorligini ta’minlashdagi roliga oid takliflardan O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi ish rejasining 3-yo‘nalishiga O‘zbekiston-2030 strategiyasining 12-band “O‘zbekiston Respublikasida aholini ijtimoiy himoya qilishning huquqiy asoslari va adolatli ijtimoiy siyosat yuritish borasidagi islohotlar” yo‘nalishida foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Mehnat va ijtimoiy masalalar qo‘mitasining 2024-yil 3-avgustdagi 04/3-12-29-sonli ma’lumotnomasi). Natijalar O‘zbekiston-2030 strategiyasining 12-band “O‘zbekiston Respublikasida aholini ijtimoiy himoya qilishning huquqiy asoslari va adolatli ijtimoiy siyosat yuritish borasidagi islohotlar” mavzusidagi seminarni tashkil etish va uning natijalari bo‘yicha risola tayyorlashga xizmat qilgan;

yoshlar ongida hayotiy qadriyatlarni shakllantirish bilan birga milliy urf-odatlarining etnomadaniy, tarixiy shakllarini namoyon bo‘lishining dinamikasi ular faoliyatini yuqori, o‘rta va quyi darajalardagi baholash bilan aniqlangan va ijtimoiy faol yoshlar ongida ommaviy madaniyat xurujlariga bilim bilan qarshi kurashishning ahamiyatini tushunishning mafkuraviy ahamiyatiga oid takliflardan O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Fan, ta’lim, madaniyat va sport masalalari qo‘mitasining 2024-yil ish rejasining 10-bandi ijrosini ta’minlashda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Fan, ta’lim, madaniyat va sport masalalari qo‘mitasining 2024-yil 12-avgustdagi 04/9-10-29-sonli ma’lumotnomasi). Natijalar “Ta’lim sifatini oshirish – Yangi O‘zbekiston taraqqiyotining yakkayu yagona to‘g‘ri yo‘lidir” mavzusidagi davra suhbatini tashkil etishga xizmat qilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot ishi Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston milliy universitetida aprobatsiyadan o‘tgan va himoyaga tavsiya etilgan, shuningdek, 2 ta xalqaro, 5 ta respublika miqyosidagi konferensiyalarda muhokamadan o‘tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha 15 ta ilmiy ish chop etilgan. Shulardan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta maqola, jumladan, 3 tasi xorijiy nashrlarda, 6 tasi respublika nashrlarida chop etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat, dissertatsiyaning umumiy hajmi 115 bet.

## **DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI**

Dissertatsiyaning “Kirish” qismida mavzuning dolzarbligi, zarurati, muammoning o‘rganilganlik darajasi, ilmiy yangiligi, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi, obyekti, predmeti, metodlari, maqsadi va vazifalari, olingan natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati, amaliyotga joriy qilinganligi, tadqiqotning aprobatsiyasi, nashr etilgan ishlarning soni va hajmi asoslangan.

Dissertatsiyaning “Yoshlarida “ommaviy madaniyat xurujiga qarshi milliy qadriyatlar ta’sirini o‘rganishning g‘oyaviy-metodologik asoslari” deb nomlangan birinchi bobda “ommaviy madaniyat” va “milliy qadriyat” tushunchalarining mohiyati va ularning o‘zaro aloqadorligi va farqi, milliy qadriyatlarning transformatsiyasi va ularning yangi O‘zbekiston yoshlari ongida milliy g‘ururni shakllantirish omili sifatidagi mafkuraviy ahamiyati ochib berilgan.

Muallif fikricha, O‘zbekiston mustaqil taraqqiyot yo‘liga o‘tgan birinchi kundan milliy qadriyatlarni asrash va ularni yoshlarga yetkazish bo‘yicha tizimli faoliyat olib borgan, bunda moddiy meros yodgorliklari qayta ro‘yxatdan o‘tkazilgan va ta’minlangan, ma’naviy meros milliy qadriyat sifatida qayta tiklangan va ularning ahamiyatini fuqarolar ongiga yetkazish uchun turli festivallar, tanlovlar tashkil etilgan. Ayni paytda XX asrning 80-yillarida asta sekinlik bilan kirib kelgan ommaviy madaniyat xurujlari axborot texnologiyalari va ijtimoiy tarmoqlarning rivojlanishi natijasida yanada avj olgan va pirovard natijada ular bir guruh yoshlar ongiga salbiy ta’sir ko‘rsatgan. Bu salbiy ta’sirlarni bartaraf etishda yoshlarning mafkuraviy immunitetini kuchaytirishga yo‘nalgan yirik dasturlar ishlab chiqilgan, xususan O‘zbekistonda “temurbeklar maktabi”ning tashkil etilishi yoshlarda bolaligidayoq vatanparvarlik, mardlik, jasorat tuyg‘ularini shakllantirish, “yoshlar daftari”ning tashkil etilishi ijtimoiy himoyaga muhtoj yoshlarni ish bilan ta’minlash, ularga imtiyozli kreditlar ajratib kichik tadbirkorlikni rivojlantirish va ularning har qanday ommaviy madaniyat xurujlaridan himoyalashga yo‘nalgan.

Dissertatsiyada “Ommaviy madaniyat” tushunchasining mohiyati, rivojlanish tarixi, G‘arb davlatlarida ommaviy madaniyatning yo‘nalishlari va Sharq davlatlarida ularga munosabat tadqiq etilgan. Muallif fikricha, umuman madaniyat va axloq insoniyat taraqqiyotining dastlabki davrlaridayoq rivojlangan. Insonning hayvonlar toifasida chiqishining negizida uning aqlli mavjudot sifatida o‘z-o‘zini anglashi yotadi, shu nuqtayi nazardan inson o‘zining insoniyligi bilan ijtimoiy taraqqiyotni harakatga keltirgan va tarixiy jarayonlarni o‘zgartirgan, ayni paytda insonga xos ba’zi illatlar tufayli u o‘zining insoniy qiyofasiga xiyonat ham qilgan, bu uning turli jinoyatlari, u yoki bu guruh a’zosi sifatida o‘zi yashayotgan davlatga qarshi faoliyatida o‘z ifodasini topgan, shu bois yoshlar ongida milliy qadriyatlarga sadoqat ruhini tarbiyalash, ular ongida bilim va e’tiqod

mutanosibligiga erishish mafkuraviy immunitetni shakllantirish mexanizmi sifatida muhim ahamiyat kasb etadi.

Dissertatsiyada nemis faylasufi M. Xorkxaymerning “Ommaviy madaniyat” tushunchasiga bergan ta’rifi Xose Ortega de Gassetning “Omnia isyoni” asarida bergan ta’rifi bilan qiyosiy tahlil etilgan va ular qarashlaridagi o‘zaro aloqalar farqlari shuningdek ispaniyalik faylasuf G.Lebonning “Xalqlar va omnia psixologiyasi” asaridagi ommaning ongi va ruhiyati haqidagi g‘oyalarning mafkuraviy ahamiyati ochib berilgan.

Muallif fikricha, XX asrning 80 yillarida yillarida O‘zbekistonda “Ommaviy madaniyat” Yevropa va AQSH kinoindustriyasining rivojlanishi bilan paydo bo‘lgan va asta sekinlik bilan yoshlar ongiga qo‘shiqlar, musiqa, ommaviy o‘yinlar, kino orqali ta’sir ko‘rsatgan. Muallif professor A.Qodirovning “Ommaviy madaniyat” umuminsoniy madaniyat va uning qadriyatlar tizimiga batamom zid, “aksilmadaniyat”<sup>7</sup> degan fikriga qo‘shilgan. Chunki “ommaviy madaniyat” insoniyatning asrlar davomida shakllangan milliy madaniyatiga tahdid sifatida keng rivojlanmoqda.

Dissertatsiyada pedagogika fanlari doktori, professor M. Quronovning “Ommaviy madaniyat” biror xalq yoki millatning madaniyati emas. Agar u biror-bir xalq yoki millatga mansub bo‘lganida edi, ularning tarixiy va zamonaviy ideallari asosiga qurilgan bo‘lar edi. Hech shubhasiz, bunday ideallar har bir xalq va millat madaniyatida bor... “Ommaviy madaniyat” – robotdek bir xil o‘ylaydigan, bir xil narsaga qiziqadigan o‘rtamiyona odam madaniyati”<sup>8</sup> degan fikri siyosiy fanlar doktori, professor Sh.G‘oyibnazarovning “ommaviy madaniyat” “chegaralarni” bo‘lish mumkinligi”<sup>9</sup> haqidagi g‘oyalarni qiyosiy tahlil qilgan.

Muallif fikricha, “Ommaviy madaniyat”ning yoshlarga salbiy ta’siri ijtimoiy hayotning barcha sohalarida namoyon bo‘lmoqda va unga qarshi faqat bilimning kuchi va iroda erkinligi orqali kurashish mumkin. Bu jarayonda oila, maktab va mahalla, yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirishga yo‘nalgan yoshlar agentli faoliyatini takomillashtirish muhim ahamiyatga ega. Muallif yoshlarning axloqiy buzuqlik, jamoat joylarida o‘pishish, shahvoniy filmlardagi qahramonlarga taqlid qilish, zo‘ravonlik, individualizm, “O‘zim bo‘lsam bo‘ldi, o‘zga bilan nima ishim bor” degan tamoyil ta’siriga tushib qolish bilan bog‘liq salbiy illatlarga qarshi ma’rifat yo‘li bilan kurashishni targ‘ib qilgan. Va Yangi O‘zbekistonda 2017-yilda e’lon qilingan beshta muhim tashabbus doirasida olib borilayotgan islohotlarning mazmunini ochib bergan.

Muallif fikricha, turli virtual (kompyuter) o‘yinlar, ayrim xorijiy va xususiy studiyalarda olingan o‘zbek filmlari, ma’no-mazmunsiz qo‘shiqlar, chet el telekanallarining ayrim ko‘rsatuvlari, internet va undagi turli ijtimoiy tarmoqlar, sariq matbuotdan tarqatilayotgan axborotlar yoshlar ongiga ta’sir etuvchi “ommaviy madaniyat” sifatida namoyon bo‘ladi.

<sup>7</sup> Qodirov A. Ommaviy madaniyat: ta’rif, tahlil, aksiltexnologiyalar. -T.: «Fan va texnologiya», 2017. B-114

<sup>8</sup> Quronov M., Esonboyev F., Gibrid olmadan, gibrid odamgacha. -T.: Muharrir, 2010, 13 B.

<sup>9</sup> Фойибназаров Ш. Оммавий маданият. Тошкент: O‘zbekiston, 2012.-227 б.

Dissertatsiyaning “Mamlakatimiz yoshlarida “ommaviy madaniyat” tahdidiga qarshi milliy qadriyatning ahamiyati” deb nomlangan ikkinchi bobida global o‘zgarishlar davrida yoshlarning “ommaviy madaniyat” ko‘rinishlariga moyilligining sabab va oqibatlari, milliy qadriyatlarning “ommaviy madaniyat” bilan aloqadorligi hamda ularning ko‘rinishlari hamda O‘zbekiston yoshlarining milliy qadriyatlari tizimiga qaratilgan “ommaviy madaniyat” tahdidi va uning g‘oyaviy yo‘nalishlari ochib berilgan.

Muallif fikricha, barcha davrlarda sharq mutafakkirlari o‘z asarlarida yuksak axloqiy fazilatlarni kamol toptirish va oilaviy qadriyatlarni mustahkamlash haqidagi muhim g‘oyalarni ilgari surganlar. Shu bois, o‘zbek oilalarida qadimiy ma’naviy qadriyat va an’analarni, urf odatlarni, ma’naviy, madaniy merosni saqlashga alohida e’tibor berilmoqda. Oila har bir farzand qalbida eng pokiza tuyg‘ular shakllanishida muhim rol o‘ynaydi. Shu sababli bugun global o‘zgarishlar sharoitida yoshlarni “ommaviy madaniyat” ta’siridan saqlab qolish maqsadida oilalarda milliy urf-odat va an’analariga sodiqlikni tarbiyalashda ota onalar ibrati muhim ahamiyatga ega.

Dissertatsiyada global o‘zgarishlar davrida yoshlarning “ommaviy madaniyat” ko‘rinishlariga moyilligiga moddiy omillar, axborot almashinuvining kuchayishi, ijtimoiy ta’siri va “ommaviy madaniyat”ning ba’zi ko‘rinishlarining ta’siri asoslangan, xususan;

starizm– subyektiv ehtirolarga berilgan holda, estrada san’atkorlari, aktyorlar, sportchilar, mashhur insonlar, televideniye va radio boshlovchilarini ilohiylashtirish;

zo‘ravonlik - bu insonga yetkaziladigan har qanday jismoniy, ma’naviy, ruhiy, moddiy tazyiqlar;

nigilizm lotincha “hech nima”, “hech narsa” so‘zidan olingan. Nigilizm - jamiyatning axloqiy, ma’naviy norma va ustunlari, umume’tirof etilgan tarixiy va madaniy qadriyatlarning inkor etilishi, shuningdek, ularga nisbatan mutlaqo salbiy, o‘ta tanqidiy munosabatda bo‘lish;

vandalizm - madaniy yodgorliklarni, qadriyatlarni vahshiylarcha vayron, oyoq osti qilish, yo‘qotish madaniyatsizlik, jaholat, nodonlikning bir ko‘rinishi sifatida namoyon bo‘ladi.

Dissertatsiyada yoshlarning ijtimoiy demografik guruh sifatidagi o‘ziga xos jihatlari, aniq tarixiy shart-sharoitlarda yoshlar tafakkuridagi o‘zgarishlarning sababiy aloqadorliklari, yoshlar turmush tarzidagi ba’zi muammoli vaziyatlar, yoshlarning doimiy rivojlanish yo‘llari, iqtidorlik yoshlarni tanlashga differensiyalashgan yondashuvning zarurligi, yoshlarning ijtimoiy tengsizligining oqibatlari, yoshlar muammolarining jamiyatda mavjud ijtimoiy munosabatlar bilan bog‘liqligi asoslangan.

Muallif fikricha, yoshlarning ma’naviy qarashlari milliy, diniy, o‘z-o‘zini anglashi ijtimoiy faoliyatida o‘z ifodasini topadi. Aynan shu vaziyatni asoslash uchun muallif yoshlar bilan sotsiologik so‘rovnoma o‘tkazgan va uning natijalari quyidagilarda namoyon bo‘ladi. Sotsiologik so‘rovnomada ishtirok etgan yoshlarning fikricha: insonning ma’naviyatini belgilab beruvchi asosiy sifatlar bu – “Haqgo‘ylik” (60,8%), “Milliy qadriyatlarni hurmat qilish” (55,5%), “O‘z xalqining

tarixini yaxshi bilish”, “Milliy gʻurur tuygʻusini rivojlantirish” (44,2%), “Qalb pokligi” (39,1%), “Kamtarlik” (39,5%), “Millatlararo va hududlararo bagʻrikenglik” (29,6%), “Ekstremistlarga salbiy munosabat” (19,5%), “Mehnatsevarlik” (0,5%), “Madaniylik” (0,9%), “Bilimdonlik” (0,7%) koʻrsatilgan. Soʻrov-tadqiqotlarda qatnashgan respondentlar fikriga koʻra, yoshlarimizning yarmidan koʻpi poraxoʻrlikni – 54%, takabburlikni – 52,7%, shu bilan birga, ikkiyuzlamachilikni – 17,3%, beparvolikni – 14,5%, tekinxoʻrlikni – 10,4%, yolgʻonchilikni – 1,7%, hasadni – 0,5%, gʻiybatni – 0,6%, tuhmat, dangasalik va qoʻpollikni – 0,2% yoqtirmas ekan. Yoshlarning fikricha: xalqning kuchi millatning birdamligida, uning olamshumul ahamiyati, avvalo, iqtisodiyotida – 69,7%, qurolli kuchlarida – 44,6%, ilmida – 44,4%, siyosatda – 41,5%, odobliligida – 37,7% deb taʼkidlashgan<sup>10</sup>. Natijalardan koʻrinadiki, yoshlardan “odamning maʼnaviyatini belgilab beruvchi asosiy sifatlar” soʻralganida, salbiy axloqiy qarashlarga juda kam foiz berilgani, axloqiy qadriyat sifatleri esa yuqori baholangani oʻgʻil-qizlarimiz bugungi kunning yetuk, barkamol, vatanparvar farzandlari sifatida kamol topayotganlaridan dalolat beradi. Taʼkidlash joiz, Vatan soʻzining maʼnosiga Oʻzbekiston yoshlari alohida urgʻu berishar ekan. Yoshlarning aksariyati “Dunyoda davlatlar koʻp, lekin bizning Oʻzbekiston Vatanimiz – yagona va hech qayerda topilmaydi”, degan fikrlarni bildirishgani diqqatga sazovordir.

Muallif fikricha, yoshlarning maʼnaviy-mafkuraviy salohiyatining yuksalishi jamiyat rivojlanishiga va yangicha dunyoqarashining shakllanishiga, maʼnaviy-mafkuraviy saviyasining bir tomondan shaxs dunyoqarashining yangilanishi, ikkinchi tomondan, jamiyatdagi maʼnaviy-mafkuraviy muhit yangilanishiga, uchinchi tomondan, yoshlar maʼnaviy-mafkuraviy salohiyati ularning sogʻlom fikrlashida namoyon boʻladi. Shuningdek, yoshlarni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalashda ularning maʼnaviy-mafkuraviy salohiyatining yuksalishi 5 ta muhim mezonlarga, yaʼni (1) vatanparvarlik, bunyodkorlik, ezgulik, odamiylik, (2) milliy va umuminsoniy qadriyatlar va fikr tarbiyasiga ega boʻlishi; (3) intellektual salohiyatning aks etishi; (4) oʻz mustaqil fikriga ega boʻlishi; (5) ijtimoiy hayot sohalaridagi faolligiga tayanadi.

Dissertatsiyaning Oʻzbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida yoshlarni “ommaviy madaniyat” taʼsiridan himoyalashda milliy gʻoyadan foydalanish mexanizmlari deb nomlangan uchinchi bobida ijtimoiy tarmoqlarning yoshlar ongida milliy qadriyatlarga sadoqat ruhining shakllanishiga salbiy taʼsirini bartaraf etish boʻyicha xorijiy mamlakatlar tajribasi hamda Oʻzbekiston yoshlarda milliy qadriyatlar orqali “ommaviy madaniyat”ga qarshi gʻoyaviy immunitetni shakllantirish va vatanparvarlik tuygʻusini mustahkamlash texnologiyalaridan foydalanishning ahamiyati asoslangan.

Muallif fikricha, raqamli texnologiyalar rivojlangan uchinchi ming yillikda global tarmoq va mobil messenjerlar orqali yoshlar turmush tarziga ehtimoliy tahdidlarni oldini olish va ularni bartaraf etish yuzasidan bir qator chora tadbirlar amalga oshirilmoqda. Bu borada Xitoy xalq respublikasining tajribasi

---

<sup>10</sup> Қаюмов Ў. Фуқаролик жамиятининг шаклланиши шароитида Ўзбекистон ёшларининг ижтимоийлашув жараёнлари. Т; “Ижтимоий фикр” ,2011. Б.44-45.

diqqatga sazovor, Bu mamlakatda aynan kibermakonda kuchaytirilgan nazorat o'rnatilgan, virtual maydonda vujudga kelayotgan muammolarning oldini olish uchun mamlakat fuqarolari keng safarbar qilish yo'lidan bormoqda. Xitoy boshqa davlatlarga nisbatan «xalqaro o'rgimchak to'ri» auditoriyasi a'zolari soni jihatdan yetakchi hisoblanadi, mamlakat aholisining 649 mln. nafari internetdan, shulardan 86 foizi mobil Internetdan foydalanadi. O'z navbatida Xitoyda ijtimoiy tarmoqdan foydalanuvchilar soni 257,22 mln. kishini tashkil qilayotgan bo'lsa, mobil messenjerlardan foydalanuvchilar miqdori esa 350 mln. kishiga yetgan. Ularning asosini 10 dan 30 yoshgacha bo'lgan aholi tashkil etadi.

Ijtimoiy tarmoqlardan intensiv ravishda foydalanish Xitoy jamiyatida virtuallashuv jarayonini kuchaytirmoqda. Bu holat ayniqsa yoshlar qatlami orasida yanada ko'proq ko'zga tashlanmoqda. 2021-yilda McKinsey&SO jamg'armasi tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlarga ko'ra, Xitoyning 60 ta eng yirik shaharlari aholisining 70 foizi bo'sh vaqtini global tarmoqda o'tkazadi. Shuningdek, xitoylik yoshlar mobil messenjerlar va ijtimoiy tarmoqlarda kun davomida vaqtini o'rtacha 4 soatini turli xil videoroliklar, musiqalar yuklab olish va boshqa ko'ngilochar suhbatlarga sarflamoqda.<sup>11</sup> Xitoylik yoshlar turmush tarzining virtuallashuvi oqibatida, 24 mln. nafar o'smir va yoshlar ijtimoiy tarmoqlarga tobeklikdan aziyat chekmoqda. Ma'lumotlarga ko'ra, maktab va litsey o'quvchilarining o'quv muassasalari talabalari ro'yxatidan o'chirilishining 80 foiz sababi ijtimoiy tarmoqlar orqali amalga oshirilgan jinoyatlardir. Shunday sharoitda Xitoy hukumati Internetda nazorati kuchaytirilgan tartibdagi chora tadbirlarni amalga oshirmoqda. Jumladan, texnik jihatdan qiyin ammo samarali hisoblanayotgan "feyrvollar" tizimidan foydalanmoqda. Ular asosan, Facebook, Twitter, You Tube va Wikipedia kabi tarmoqlarni blokirovka qilishda qo'llanilmoqda. Internetdagi boshqa xizmatlaridan ko'ra, ijtimoiy tarmoq va bloglarga nisbatan kuchaytirilgan nazorat tartibi joriy etilgan. Xususan, o'zining haqiqiy ism familiyasi va to'liq ma'lumotlari bilan ro'yxatdan o'tmaydigan blog o'quvchilariga blokstolar tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlar taqiqlangan. Bloglarda qayd qilinayotgan foydalanuvchilarning shaxsiy ma'lumotlari kompyuterlar bazasidagi axborotlarga mos kelgan taqdiridagina ro'yxatdan o'tkaziladi. Undan tashqari, ijtimoiy tarmoq foydalanuvchilariga o'z nomini turli xil taxalluslar ostida qayd etish ham taqiqlangan, bloglarda anonim tartibda izohlar qoldirish ham noqonuniy harakat sifatida baholanadi.

Хитой халқ республикасида ижтимоий тармоқларни назорат қилиш uchun "Sina Weibo" tarmog'ida turli xil destruktiv kayfiyatdagi virtual jamiyatlarni tashkil qiluvchilar, norozilik kayfiyatini shakllantiruvchi "ommaviy madaniyat"ga oid xabar tarqatuvchilar faoliyatiga chek qo'yish uchun yangi qoidalar joriy qilingan. Jumladan, Sina Weibo ijtimoiy tarmog'idan ro'yxatdan o'tuvchilarning barchasiga 80 ball beriladi. Agar ijtimoiy tarmoq foydalanuvchisi "noqonuniy virtual tashkilotlar tuzib, qo'poruvchilik bilan shug'ullanishga undaydigan" harakatlarni amalga oshirsa, yoki "qonunda belgilanmagan tartibda majlislar o'tkazish hamda norozilik namoyishlari tashkil qilish" bilan shug'ullansa jazo tariqasida mavjud 80

---

